


«Asaka» bankning 2012 yil 1 chorakdagi faoliyati yakunlari

«Asaka» bankning 2012 yil 1 choragi davomidagi faoliyati mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan «Inqirozga qarshi dastur» ijrosini ta'minlash, shu asosda uzoq muddatli o'sish va rivojlanishga erishish, investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga etkazishga intilish orqali yuqori raqobatbardosh, ichki bozor va eksport talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga va xorijiy xamkorlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatishga qaratildi.


Ayni paytda bank 26 filiali, 112 ta mini-banki, 1440 ta jamg'arma, maxsus va sayyor kassalari orqali ho'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari bank tizimida «Asaka trans lizing» - lizing kompaniyasi va «Asaka investment» - boshqaruv kompaniyasi faoliyat yuritmoqda.

Bank tomonidan muntazam ravishda mijozlar bazasini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda bank mijozlari soni 1 million 96 ming nafardan oshdi.

«Asaka» bank jami aktivlari 2012 yil 1 choragi davomida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,1 foizga o'sdi va 2012 yil 1 aprel xolatiga 3798,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Bank jami kapitalini 93,5 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 512,4 mlrd.so'mga etkazildi.



«Asaka» bank fond bozorida yirik investorlardan biri hisoblanadi. 37 korxonaning aktsiyadori va ustav fondlarida o'z ulushiga ega. Aktsiyalar portfeli respublika iqtisodiyotining 10 ta tarmog'i bo'yicha diversifikatsiyalashtirilgan. Bankning korxonalar aktsiyalari va ustav fondlaridagi ulushi hajmi 94,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan Bank kredit qo'yilmalari hajmi 1 643,5 mlrd.so'mni tashkil qildi.



Kredit qo'yilmalarining 1 346,1 mlrd. so'm miqdoridagi qismi yoki 81,9 foizi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi, shundan 1 162,8 mlrd. so'm miqdoridagi qismi investitsion kreditlardir.

Joriy yil birinchi choragi mobaynida Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy qiymati 32,7 mlrd.so'm miqdorida bo'lgan 19 ta investitsion loyihalar moliyalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining 2012 yildagi Investitsion Dasturi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq 47,1 mlrd.so'm miqdoridagi 7 ta investitsion loyihalar moliyalashtirildi.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish maqsadida, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida jami 46,8 mlrd.so'm miqdorida, shu jumladan joriy yil birinchi choragida 1,8 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, shuningdek mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirishni rag'batlantirish, eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda mustahkamlash va shu asosda aholi bandligi o'sishini ta'minlash va uning moddiy farovonligini oshirish maqsadida bank tomonidan 35,6 mlrd.so'm miqdoridagi 7 ta investitsion loyiha moliyalashtirildi.

Bank tomonidan 8,7 mlrd.so'm miqdoridagi 10 ta lizing loyihalari moliyalashtirildi va lizing portfeli xajmi 87 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bank lizing portfeli iqtisodiyotning sanoat, qishloq ho'jaligi, transport, qurilish, ijtimoiy soha va boshqa tarmoqlari o'rtasida diversifikatsiyalashtirilgan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilyotgan chora-tadbirlarda ham "Asaka" bankning hissasi oshib bormoqda.

Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yil birinchi choragi davomida 132,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlar natijasida 6 ming nafardan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, jumladan iqtisodiy va moliyaviy barqaror qishloq xo'jaligi korxonalarini tashkil qilish maqsadida bank tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarini zarur texnikalar bilan ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha faol ishlar olib borildi. Qishloq xo'jaligi texnikalari sotib olish uchun 1,4 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Respublikamizda parrandachilikni rivojlantirishga 7,3 mlrd. so'm, chorvachilikni rivojlantirishga 3,8 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Shu bilan birga fermer xo'jaliklariga 2012 yilda davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun 2,9 mlrd.so'm va 4,6 mlrd.so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Shuningdek, bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2009 yil 26 yanvardagi Qaroriga asosan 41,3 mlrd.so'm, «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2009 yil 28 yanvardagi Qaroriga asosan 22,4 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayollarga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadlariga 8,5 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Xozirgi davrda oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib, bu sohani rivojiga ham bank tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Bank jamoasi «**Asaka bank – Mustahkam oilaning moliyaviy tayanchi**» shiori bilan faol ish olib bormoqda. Buni bank tomonidan oilaviy biznesni rivojlantirish uchun 983,5 mln.so'm miqdorida kreditlar ajratilganligidan ko'rishimiz mumkin. 2012 yil davomida mazkur soha rivojiga 3,2 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2012 yil mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan "Asaka" bank tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasida bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

Shunday tadbirlardan biri sifatida joriy yilning yanvar – fevral oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillari bo'lgan tadbirkor ayollar o'rtasida "**Eng yaxshi tadbirkor ayol loyihasi**" tanlovi o'tkazildi.

Ushbu tanlov shartlari ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilindi. Tanlovda ishtirok etish uchun bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda joylashgan filiallariga bank mijozlari va tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'plab loyihalar taqdim etildi.

Taqdim etilgan ko'p sonli loyihalar orasidan bank Bosh ofisida tuzilgan Ishchi guruhi tomonidan sovrinli o'rinlarga munosiblari tanlab olindi. Bunda asosiy e'tibor taqdim etilgan loyihalar bo'yicha yaratilayotgan yangi ish o'rinlari soniga, shuningdek sifatli va raqobatbardosh oziq-ovqat mahsulotlari va mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan loyihalarga qaratildi.

Tanlov yakunlariga ko'ra Ishchi guruxi a'zolari tomonidan quyidagi tanlov ishtirokchilari g'olib deb topildi:

1 o'rin – “Asaka” bankning Sirdaryo viloyat filiali mijozi bo'lgan “Nasli kumush kurka” FX loyihasi;

2 o'rin – “Asaka” bankning Namangan viloyat filiali mijozi bo'lmish “Asl tekstil liboslari” MCHJ loyihasi;

3 o'rin - “Asaka” bankning Navoiy viloyat filiali mijozi bo'lmish YATT “Jo'raeva Nilufar Baxshullaevna” loyihasi.

Tanlov g'oliblari imtiyozli shartlarda kredit olish xuquqini beruvchi sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

“Asaka” bankning mijozlarga ko'rsatilayotgan barcha yo'nalishlar bo'yicha hizmatlari, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlanishi munosib baholanmoqda. Jumladan, joriy yilning aprel oyida o'tkazilgan “BankExpo-2012” bank texnologiyalari, uskunalari va xizmatlari V- yillik milliy ko'rgazmasida “Asaka” bank **«Tadbirkorlarning eng yaxshi hamkori va ishonchli tayanchi»** nominatsiyasida g'olib deb topildi.

Bank tomonidan respublikamiz aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yil birinchi choragi davomida 746 nafar oilaga 2,0 mlrd. so'm miqdorida iste'mol kreditlari, 120 nafar oilaga 6,6 mlrd.so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi.

YOsh oilalarni moddiy jixatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida bank tomonidan ularga imtiyozli shartlarda hizmatlar ko'rsatilmoqda. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 212 nafar yosh oilalarga 5,75 mlrd. so'm miqdorida ipoteka kreditlari, 135 nafar yosh oilaga 640,2 mln.so'm miqdorida iste'mol kreditlari ajratildi.

Mamlakat iqtisodiyotining yanada o'sishi va mustahkamlanishi omillaridan biri - bu iqtisodiy nochor va bankrot deb e'lon qilingan korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko'mak berish va shu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bu sohada asosiy dasturulamal bo'lmoqda. “Asaka” bank tomonidan bu sohada muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan 45 ta bankrot korxonalarining 44 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 13 ta sho'ba korxonasi tashkil qilingan. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 89,6 milliard so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Ishlab chiqarish faoliyati

tiklangan bankrot korxonalarda jami 124,7 milliard so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 29,3 million AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi. 5 200 nafardan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi va ishchi-xodimlar ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustaxkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muxim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida "Asaka" bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2012 yil 1 aprel holatiga 73 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin. Omonatlarga qo'yilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda omonatchilarning birinchi talablariga binoan naqd pulda ta'minlab berilmokda. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 6 ta yangi omonat turlari ochildi.

Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2012 yil 1 aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,9 mlrd.so'mga o'sdi va so'm ekvivalentida 273,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu esa aholining Bankga bo'lgan ishonchini oshganligidan dalolat beradi.

Omonatchilar soni 154 ming nafarga o'sdi va 1 065 ming nafarni tashkil qildi.



Bank tomonidan mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar munosib baholandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Banklar Uyushmasi tomonidan 2012 yil 4 fevralda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 31 oktyabrdagi "Axolining omonatlarini jalb qilish bo'yicha Respublika tijorat banklari o'rtasida tanlov o'tkazish to'g'risida"gi Qaroriga asosan 2011 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan tanlovda "Asaka" bank g'olib chiqib, «**Aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki**» nominatsiyasi bo'yicha 2-o'rinni egalladi.

Respublika banklari viloyat filiallari o'rtasida "Asaka" bankning Xorazm viloyat filiali «**SHaharlarda aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi filiali**» nominatsiyasi bo'yicha g'olib chiqdi va 1-o'rinni egalladi.

“Asaka” bank «**Eng yaxshi plastik kartochka emitenti**» nominatsiyasida g’olib chiqdi.

SHu bilan birgalikda “Asaka” bank «**Yilning eng yaxshi innovatsion banki**» deb topildi.

Ushbu yutuqlarga erishish “Asaka” bank tizimida bu sohada olib borilayotgan ishlarning to’g’ri yo’lga qo’yilganligidan dalolat bermoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi “Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag’batlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo’yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2012 yil 1 aprel holatiga 936 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni 173,1 ming donaga o’sdi. 8205 ta terminal, 35 ta bankomat va 35 ta infokiosk o’rnatildi. 6766 ta korxonalar va tashkilotlarda “ish haqi” loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2012 yil 1 aprel holatiga savdo aylanmalari miqdori 1 533,5 mlrd. so’mni tashkil qildi va 641,1 mlrd.so’mga o’sdi.

“Asaka” bankda o’rnatilgan barcha infokiosk va bankomatlar UZ PAYNET to’lov tizimiga ulangan bo’lib, mijozlar plastik kartochka orqali barcha kommunal xizmatlar bo’yicha va uyali aloqa uchun to’lovlarni amalga oshirish, plastik kartochka egalariga, qaysi bank emitenti bo’lishidan qat’iy nazar, o’z hisob raqamidagi pul mablag’lari holati bo’yicha ma’lumotlarni olish, pul mablag’larini plastik kartochkalarga yuklab olish imkoniyatiga egadirlar. Bundan tashqari, MasterCard va Maestro xalqaro plastik kartalari egalariga «Asaka» bank bankomatlaridan naqd pul mablag’larini o’z istaklariga ko’ra milliy valyutamizda (rasmiy kurs bo’yicha) yoki AQSH dollarida olish imkoniyati yaratildi.

“Xalqaro plastik kartochkalar (“MasterCard”) orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi”ni kengaytirish bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda. Bank tomonidan chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 10 ming donaga ko’paydi va 84 ming donani tashkil qildi.

Bank Axborot xizmati